



MAKTABDA O`QUVCHILARGA NATYURMORTNI RANGTASVIRDA ISHLASHGA O`RGATISH

*Sharobidinova Ra'noxon Jololdinovna
Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 74-IDUMda
tasviriy san'at va chizmachilik o`qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola o`quvchilarga natyurmortni rangtasvirda ishlash, uning estetik tarbiyasini rivojlantirish orqali barkamol shaxslarni voyaga kabi masalalarini targ‘ib qiladi.

Kalit so‘zlar: natyurmort, estetik tarbiya, barkamol avlod, axloqiy fazilat, badiiy ijod, rangtasvir texnikasi.

KIRISH

Natyurmort (fransuzchadan “o‘lik tabiat”) degan ma’noni anglatib - jonsiz buyumlarni tasvirlashga bag‘ishlangan tasviriy san’at janridir. Ushbujanr tasviriy san’atning boshqa janrlariga qaraganda ancha yosh hisoblanib XV-XVI asrlarda kompozitsyaning bir qismi sifatida paydo bo‘la boshladi va XVII-asrda Golland va Flamand rasmlari tomonidan shakllandi hamdarivojlandi. Savol tug‘iladi, nima uchun natyurmort uzlusiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida sevib ijro etiladigan janr? Chunki u boshlang‘ich sinf o‘quvchisidan boshlab, professional rassomgacha o‘ziga jalb qilinadigan sevimli mashg‘ulot turidir. Ayniqsa, endigina tasviriy san’at olamiga kirib kelayotgan boshlovchi bo‘lajak tasviriy san’at ustalari uchun qiziqarli bo‘lgan eng oddiy janr. Natyurmortlarni tasvirlash jarayonida bo‘lajak rassom hajm, fazo, shakl, perspektiva qonunlarini o‘rganib san’atning pillapoyalaridan yuqori cho‘qqilarga chiqish uchun eng maqbo‘l yo‘lidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Natyurmort tasviriy san’atda keng rivoj topgan mustaqil janriga aylanib, O‘zbekiston tasviriy san’atida rassomlardan N.Kashina, Z.Kovalevskaya, Y.Yelizarov,



R.Axmedov, G'.Abduraxmanov, N.Ten A.Yunusov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar ham tabiat yaratgan noz-ne'matlarga bo'lган mehrlarni natyurmortda ifodalaganlar. Natyurmort va uning oliv ta'limda talabalarni kasbiy tayyorlashdagi ahamiyatiga bag'ishlangan o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan M.Nabiev, B.Asimova, G'.Abduraxmonov, B.Baymetov kabi metodist olimlar samarali ijod qilganlar. Rus tasviriy san'atninig ustalari N.N.Rostovsev, V.S.Kuzin, A.Unkovskiy va boshqalar natyurmortni tasvirlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'zbekiston tasviriy san'atidarassomlardan N.Kashina, Z.Kovalevskaya, Yu.Yelizarov, R.Axmedov, G'.Abduraxmanov, N.Ten A.Yunusov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari ham tabiat yaratgan noz-ne'matlarga bo'lганmehrlarni natyurmortda ifodalaganlar. Natyurmort janrining oliv ta'limda talabalarni kasbiy tayyorlashdagi ahamiyatiga bag'ishlangan o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan M.Nabiev, B.Asimova, G'.Abduraxmonov, B.Baymetov kabi rassom-olimlar samarali ijod qilganlar [1,2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tasviriy san'at sohasida taxsil olayotgan yoshlar qanday bosqichda ta'limolayotgan bo'lishlaridan qat'iy nazar natyurmortni barcha qonun-qoidalarga monand va mukammal tarzda tuzish masalasi muhim hisoblanadi. Quyida biz natyurmortning kompozitsion nazariyasini tahlil qilamiz va uni qanday qilibto'g'ri tuzish haqida suhbatlashamiz.

Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Bunga sabab maktabda rasm ishlashni o'rganishda akvarelning yetakchi rol o'ynashidir Shuning uchun uni o'qitayotgan o'qituvchining o'zi ham shu sohani puxta egallagan bo'lishi zarur.



Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o‘rtasida to‘la o‘xshashlik bo‘lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o‘xshashlik bo‘lishi shart. Tasviriy san’atda akvarel bo‘yoqlar bilan ishslash salmokli o‘rinni egallaydi. Akvarel rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o‘zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko‘pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so‘z bo‘lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo‘yoqlar» ma’nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo‘yoq moddasi o‘simlik yoki ma’danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni va biriktiruvchi modda sifatida olcha yelimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo‘lgani uchun bo‘yoqqa suv qo‘sib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o‘rnini oq qog‘ozning o‘zi o‘taydi. Qog‘oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g‘adir-budir bo‘lishi zarur. U agar juda silliq bo‘lsa, sathida ranglar yetarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo‘yash jarayonida umumiyyadan xususiyga yoki aksincha xususiydan umumiyyaga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Guash bo‘yog‘i akvarel bo‘yog‘ini tamoman aksi bo‘lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug‘likni yutganligi sababli uning tagidagi qog‘oz ko‘rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari-bo‘yoq kukuni va uni bog‘lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog‘och yelimi bilan mo‘tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo‘ladi. Guash bo‘yog‘ining yana bir muhim jihatni uning oq bo‘yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchilik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo‘yoqni ishlatish uchun mo‘yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo‘lmasligi, bir oz dag‘alroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya’ni qog‘oz yoki karton ham silliq bo‘limgani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo‘lishi zarur.

Guash bo‘yog‘ining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo‘lib, uning nomi «fluorescentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun’iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko‘rinishidir. Chunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko‘k, yashil nurlardan g‘ayrioddiiy yorqin va tabiatdagidan ikki-



uch marta kuchli rangda tovlanib ko‘rinadi. Shu sababdan bunday bo‘yoq turi teatr bezakchilida keng qo‘llanmoqda. Uning ta’sirchan yarqirab ko‘rinishi uchun odatda kvars lampalarni nuridan ham foydalanish bo‘lmoqda [4].

O‘quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqla natyurmortlarni ishslashda guash bo‘yog‘idan foydalanish juda ham qo‘l keladi. Uni moybo‘yoq tasvirlar ishslashdan avval o‘rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek, turli kompozitsiyalarining eskizlarini o‘quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo‘yash, tez ishslash mumkin.

Moybo‘yoqli natyurmort rangtasvirini ishslash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o‘xshash. Chunki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo‘yoqda ishslash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo‘yoqda ishslash jarayonida batafsillik mo‘yqalamda ham bajarilishi mumkinligidandir. Moybo‘yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo‘shiladi. Shunisi ham borki oq rang qo‘shilgach bo‘yoqning yorqinligi ma’lum darajada kamayadi. Buni o‘quv mashklarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish lozim. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo‘lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko‘rib o‘rganish, asosiy ishda uni qo‘llash mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, moybo‘yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra)ning yuzasida bo‘yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Undabo‘yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to‘q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo‘yoq odatda o‘rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo‘ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o‘rganadi va kerakli bo‘yoqni darrov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.



Moybo‘yoqda tasvirlar ishlashning juda ko‘p o‘rganilishi kerak bo‘lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko‘p mashq qilish orqali o‘rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI Hasanov R.X. Egamov. Tasviriy san’at darsliklari 1,2,3,4 sinflar. 2012

1. Hasanov R.X. Maktabda tasviriy san’at mashg‘ulotlarini takomollashtirish yo‘llari. T.2011.
2. Axmedova, N. E. (2022). MO‘JAZ SAN’ATNING BETAKROR NAFOSAT OLAMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
3. www.natlib.uz
4. www.ziyonet.uz